



---

**IMPORTANCE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN  
TEACHING PHONETICS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10119038>

**Mamasoliyeva Gulchekhra Abdukhalilovna**

*Andijan State Institute of Foreign Languages*

*Teacher of the Department of Theory and Practice of the French Language*

*E-mail: mgulichexra@mail.ru*

**ANNOTATION**

This article aims to comprehensively explain the importance of modern pedagogical technologies in teaching foreign language, mainly French phonetics, in higher educational institutions.

**Basic words**

French phonetics, language material, correct pronunciation, foreign language phonetics, pronunciation standards, parts of speech, phonetic exercises, audio speaker

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA FONETIKANI O'RGATISHDA  
ZAMONAVIY PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALARNI AHAMIYATI**

**Mamasoliyeva Gulchexra Abduxalilovna**

*Andijon davlat chet tillar instituti*

*Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi*

*E-mail:mgulichexra@mail.ru*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida chet tili, asosan fransuz tili fonetikasini o'qitishdagi zamonaviy pedogogik texnologiyalarning ahamiyatini keng qo'lamda yoritib berishga qaratilgan.

**Tayanch so'zlar**

Fransuz tili fonetikasi, til material, to'g'ri talffuz qilish, xorijiy til fonetikasi, talaffuz meyorlari, nutq a'zolari, fonetik mashqlar, audio-spiker

Xorijiy tilni o'rganishdan maqsad o'sha tilda aniq va ravon gapirishdir.

O'rganilayotgan tilda ravon gapirish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Ya'ni o'sha tilning grammatik qoidalarni to'la o'zlashtirish, keng qo'lamda so'z boyligiga ega bo'lish va tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish qo'nikmalarini o'zlashtirishdan iboratdir. Chet



tilini o'qitish nutqiy faoliyat turlariga ( gapirish, tinglab-tushunish, o'zish va o'qish) yo'naltirilgan. Shuning uchun ularga mos qo'nikmalar hosil qilish qo'zda tutilganligi uchun bunda o'qitishni namoyish qilish, tushuntirish, hikoya qilish, audio va video eshitirishlar, mashq bajarish, rol bilan bajarariladigan o'yinlar, suhbat, savol-javob, dialog, bahs, munozara va boshqa ta'lim turlari keng qo'llaniladi.

O'rganuvchining talaffuzini o'stirish maqsadida fonetik mashqlarni dars mobaynida qo'proq qo'llash tavsiya etiladi.

Fonetika til o'rganuvchiga nafaqat to'g'ri talffuz qilishni, balki orfografiya (to'g'ri yozish)ni ham o'rgatadi. Nutq tovushlarini to'g'ri o'zlashtirgan talaba yozma nutqda hech qanday muammoga duch kelmaydi. Ayniqsa fonetik mashqlar nutqida muammosi bo'lgan bolalar (tili chuchuk) bolalarni til talaffuzini to'g'ri yo'naltirishga juda katta yordam beradi.

Ayniqsa, artikulyatsion mashqlar, lab, til, tishlar, jag'lar, tanglay ishtirokidagi so'zlarni turli mashqlar yordamida ko'proq talaffuz qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi kunda muammolardan biri talaffuz a'zolarida nuqsoni bor emas, balki nuqsonsiz bo'la turib bolalikdan talaffuzi noto'g'ri shakllangan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar va undan yuqori bo'lgan o'smir bolalarda tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olmaslik holatlari tez-tez uchrab turibdi. Bu esa oila, maktabgacha ta'lim va o'rta ta'lim maktablarda talaffuz meyorlariga ( fonetikaga) e'tibor yo'qligidan dalolat bermoqda. O'z ona tilida talaffuz me'yorlarini yaxshi o'zlantirmagan o'quvchi esa, oliy ta'limda chet tillarini o'zlashtirish uchun talaba sifatida davom ettirmoqdalar.

E'tibor bering-a, talaba o'z fanining yetuk bilimdoni bo'lsa-yu, nutqi ravon bo'lmasa. Ayniqsa u kelajakdagi til mutaxassisi bo'lsa?! Bu ham hozirgi kundagi til o'rgatishdagi muammolardan biri emasmi?

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishning asosiy yechimi esa har bir ta'lim muassasasida hox u maktabgacha ta'lim bo'lsin, hoh oliy ta'lim avvalo ona tili fonetikasi va chet tilini o'rgatishda o'sha urganilayotgan xorijiy til fonetikasiga yanada e'tibor berishdir. Hozirgi kunda til o'rgatishda fonetika keyingi o'rinlarga qo'yilmoqda. Chunki asosiy maqsad o'rganuvchi qanday bo'lsada tinglovchiga o'z fikrini bayon qilish va uni tushunishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bu esa adabiy til talaffuz me'yorlarini buzilishiga olib kelmoqda. Hattoki o'z ona tilimiz o'zbek tilida olib boriladigan davlat telko'rsatuv va radio eshitirishlar xam allaqachon shevalashib bo'lgan.

Til mavjud ekan, har bir tilning taraqqiy etish yo'lida o'zining tarixiy rivojlanish davrida leksik, grammatik ayniqsa, fonetik o'zgarishlari haqida dunyo tilshunos olimlari ko'plab ilmiy asarlar qoldirganlar.



Hozirgi kunda talabanning bilim bilim salohiyatini oshirish maqsadida bir necha ta'lim texnologiyalari va metodlar yaxshi samara bermoqda. Chet tili fonetikasini o'rgatishni kommunikativ va interaktiv metodlar orqali targ'ib qilish ham samarali usullardir

I. O'rganilayotgan til tovushlarini talaffuzini o'rganishda nutq a'zolarini tovush talaffuziga moslashtirish, talaffuz mashqlarni o'zlashtirish va uni har bir darsda takrorlash. Masalan fransuz tili unli a, o, u, i, e, y tovushlar talaffuzlarida ishtirok etayotgan organlar mashqlari yoki undosh tovushlar p, b, d, l, f, k, m, n va boshqa tovushlar talaffuzida nutq organlari mashqlari.

II. Har bir tovush talaffuziga oid ko'plab fonetik mashqlar qilish va ularni ravon talaffuz qilishni nazorat qilish.

1. Diktor ketidan unli va undosh tovushlar qatorini talaffuz qilish.  
2. Diktor ketidan frazalarni takrorlash va yod olish.  
3. Yod olingan frazalarni magnit tasmasiga yozib olish va o'z xatolari ustida ishlash.

4. Intonatsion mashqlar bajarish.

a. Bir gapni xar xil ma'no ko'rinishini ifodalovchi mashqlar.

Darak gap: Tu aime le francais.

So'roq gap: Tu aime le francais ?

Undov gap: Tu aime le francais !

Yod olingan yoki o'rganilayotgan matnlarda urg'u, metodikani tembr, pauza, temperal vositalar, tessitura vositalarni qo'llanishini ko'rib chiqish.

So'zlash ohangida tovushning pasayishi, ko'tarilishi yoki me'yorida talaffuz qilinishini nazorat qilish kerakligini tushunib yetgan talaba bir- biri bilan bo'lgan muloqatda o'zaro kuzatib boradi.

Fransuz tili fonetikasiga oid bo'lgan qoidalar quyidagilardir: xarf va xarf birikmalari, tovushlar ularni turli xarflar bilan ifodalanishi, o'qilishi, asosiy qismdagi matnlar va dialoglarning o'qilishi, mutaxassislikka oid matn va ulardagi maxsus atamalarning o'qilishi va tarjimai texnik vositalari yordamida takrorlanishi maqsadga muvofiqdir.

III. Yuqorida keltirilgan fonetik mashqlarni kommunikativ va interaktiv metodlar orqali joriy qilish esa ko'zlangan maqsad sari tashlangan samarali qadamdir. Hozirgi kunga kelib, yuqorida sanalgan fikrlarga zid javoblar ham bo'lishi tabiiy.

Masalan:

1. Bu metodlar juda eskirib qolgan va bular og'zaki nutq uchun mos kelishi mumkin

2. Fonetikani o'qitishda metodlar shart emas, chunki bunda ko'proq ma'suliyat ( lektor) o'qituvchi zimmasiga tushadi.



3. Chet tilini o'rganishda fonetikani o'qitilishi shart emas. O'rganuvchi eshitib xam o'zlashtira oladi

4. Bu fan juda zerikarli va hakovolar

Aksincha, fonetika tilning poydevori bo'lib, tilning qurilishini esa shubhasiz poydevorsiz ya'ni fonetikasiz tasavvur qilish mumkin emas. Agar hozirgi kunda umuta'lim maktablarida, oliy o'quv yurtlarida chet tilini o'rgatishda fonetika faniga yetarli soatlar ajratilganda edi, oldimizga quygan maqsadga erishgan bo'lar edik. Ya'ni o'sha o'rganilayotgan chet tili talaffuz normalariga to'la javob bera oladigan mutaxassilarni ko'plab tarbiyalagan bo'lar edik.

Keling, juda oddiy bir fonetik mashqni eslaylik.

Talaba matnni bir necha marta ( talabani hoxishiga ko'ra) tinglaydi,

(o'qituvchi yoki audio-spiker) har bir tovush talaffuz normalari, ular orasidagi fonetik bog'lanishlar( fransuz tiliga xos), fonetik hodisalar yoki prosodik vositalarni qo'llanishini kuzatadi va takrorlaydi. Agar talaba yana extiyoj sezsa tinglaydi. Matnni qog'ozga tushiradi. Diktorga taqlid qilgan holda to'g'ri talaffuz qilib o'qiydi. O'qigan matnni tasmaga yozadi. Tasmaga yozilgan o'z talaffuzi bilan diktor talaffuzini solishtiradi. Xatolarini topadi. O'ziga maummo tug'dirayotgan tovush talaffuzi ustida ko'p bor mashq qiladi. Bunga o'xshash oddiy mashqlarni tez-tez bajarib turish kerak.

Yuqorida aytib o'tilgan mashqlarni bajarish uchun nafaqat fonetika mashg'ulotlarida, balki og'zaki nutq, yozma nutq kabi mashg'ulotlarda xam qo'llash mumkin. Bundan tashqari mashg'ulotlarda topishmoqli o'yinlar, harakatli o'yinlar, boshqotirmalar va turli didaktik va autentik qiziqarli ma'lumotlar xam o'rganuvchiga talaffuzni to'g'ri shakllantirishga yordam beradi.

Pedagogik va psixologik manbalarda o'rganuvchini eslab qolish samaradorlik ko'rsatkichlarini quyidagi ko'nikmalarda ko'rsatib o'tiladi.

1. Eshitish orqali 10%
2. O'qish orqali 10%
3. Qo'rganda 20%
4. Ko'rgan va eshitganda - 30%
5. Muhokama qilganda -40%
6. O'qigan , yozgan va gapirganda-50%
7. O'qigan, yozgan, muhokama va namoyish qilganda-75 %
8. Boshqalarga ushbu o'quv materiallarini o'rgatganda -90%

Xorijiy tilni o'rgatishda kommunikativ metodni o'rni beqiyosdir. Kommunikativ metodni esa fonetik mashqlarda qo'llab, bir necha yaxshi natijalarga erishish mumkin.

1. Nafas olishni yo'lga qo'yishda
2. Tovushlarni solishtirib, taqqoslab o'rganishda



3. Nutq tovushlarini tasniflashda
4. Bo'g'inlarni o'rganishda
5. Bog'lanish ya'ni liaisonlarni o'rganishda
6. Ohangni o'rganishda va barcha fonetik bilimlarni egallashda

Chet tili fonetikasini o'qitishda zamonaviy pedogogik texnologiyalar yordamida mashg'ulotlarni tashkil etishni yuqori samara berishi esa ta'limning asosiy maqsadidir.

Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu ko'nikmalar til o'rganishni asosiy omillaridir. Xorijiy tilni o'rganish, o'sha mamlakat madaniyati, tarixi va ijtimoiy hayotini yaxshi bilish demakdir. Bu esa yosh avlodni madaniyatli, ilmi va komil qilib tarbiyalash omilining asosidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. А. Ирискулов. Хорижий тилни ўқитишда лингво-культурологик ёндашувнинг аҳамияти. 2006 2-сон
2. К. Жабборов. Француз тили ўқитишда замонавий технологиялар. 2007 й
3. Андрейчикова Л.П, Убайдуллаев М, Юсупова Н.А “ Француз тили фонетикаси” Тошкент.1992.80-81 б.
4. Мамасолиева, Г. А. (2023). Француз ва ўзбек тили унлиларининг синтагматик ҳолатдаги даражали муносабати. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(5), 2388-2396.
5. Ориповна А.И., Максаммаджоновна С.Л., Одиждонович Ю.И. и Пазлидинович К.О. (2022). Речевая цепочка и повторные номинации на разных языках системы. Обзор лингвистики и культуры , 6 (S2), 485–490.
6. Khasanboeva Nafisa Olimjonovna. (2023). LEXICO-SEMANTIC FEATURES OF CLICHES IN FRENCH. American Journal of Philological Sciences, 3(02), 60–65.
7. Saidova Lolaxon. Fransuz tilida ba'zi so'z birliklarining grammatikalizatsiyasi. Ilm sarchashmalari. Urgench. 143-145-betlar
7. Nortoeva Nodira Muhammadalievna. (2023). Direction communicative-pragmatique dans l'étude des unités phraséologiques et de leurs dérivés en français et en ouzbek. JOURNAL INTERNATIONAL DES SCIENCES SOCIALES ET DE RECHERCHE INTERDISCIPLINAIRE ISSN : 2277-3630 Facteur d'impact : 7,429 , 12 (01), 49-50